



## THE SYSTEM OF INTERNATIONAL RELATIONS OF THE MIDDLE EAST REGION

*Altinoy A. Nomozova*

*Master's student*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [oltinoyabdukhmidovna@gmail.com](mailto:oltinoyabdukhmidovna@gmail.com)*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Middle East, geostrategic, natural resources, USA, international politics, ASEAN, "Al-Zafar", transport corridor, Arab-Israeli, international terrorist bases

**Received:** 11.05.23

**Accepted:** 13.05.23

**Published:** 15.05.23

**Abstract:** This article talks about the origin of the term "Middle East", the factors that lead to the increasing role of the Middle East region in today's international politics and the focus of the world community, and the policies of the two superpowers, the United States and Russia, in the region, and relative approach to the conflicts there is analyzed.

---

## YAQIN SHARQ MINTAQASI XALQARO MUNOSABATLARI TIZIMI

*Oltinoy A. Nomozova*

*Magistratura talabasi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [oltinoyabdukhmidovna@gmail.com](mailto:oltinoyabdukhmidovna@gmail.com)*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Yaqin Sharq, geostrategik, tabiiy resurslar, AQSh, xalqaro siyosat, ASEAN, "Al-Zafar", transport koridori, Arab-Isroil, xalqaro terroristik bazalar

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada "Yaqin Sharq" atamasining kelib chiqishi, Yaqin Sharq mintaqasining bugungi xalqaro siyosatdagi rolining ortib borishiga va jahon hamjamiyatning diqqat markaziga tushushiga sabab bo'layotgan omillar haqida so'z yuritiladi hamda ikki qudratli davlat AQSh va Rossiyaning mintaqada olib borayotgan siyosati, u yerdagi nizolarga nisbatan yondashuvi tahlil qilinadi.

---

## СИСТЕМА МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ БЛИЖНЕВОСТОЧНОГО РЕГИОНА

*Алтиной А. Номозова*

*студент магистратуры*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

Ташкент, Ўзбекистан

E-mail: [oltinoyabdukhmidovna@gmail.com](mailto:oltinoyabdukhmidovna@gmail.com)

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** Ближний Восток, геостратегия, природные ресурсы, США, международная политика, АСЕАН, «Аль-Зафар», транспортный коридор, арабo-израильские базы, международные террористические базы.

**Аннотация:** В данной статье говорится о происхождении термина «Ближний Восток», факторах, обуславливающих возрастающую роль ближневосточного региона в современной международной политике и в центре внимания мирового сообщества, а также анализируется о политике в регионе и относительный подход конфликты там двух сверхдержав, США и Россия.

---

## KIRISH

Yaqin Sharq jahon siyosatining geostrategik ahamiyatga molik mintaqalaridan biri ekanligi soha mutaxassislariga yaqindan ma'lum. Bugungi kunda ushbu mintaqadagi kuchlar nisbati va hattoki unga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari ham tobora yangi xususiyat kasb etib kelmoqda. Tabiiyki, geografik, energetik va diniy omillar Yaqin Sharqqa bo'lgan geosiyosiy qiziqishning oshib borishi sabablaridan bo'lib, mintaqani "katta o'yinlar" girdobiga tortishga olib kelmoqda. Alohida qayd etadigan bo'lsak, bu mintaqa jahonda neki muammo bo'lsa, barchasini o'zida mujassam qiladi. Chunki, unda etnik va diniy muammolar, chegara va qochoqlar, iqtisodiy va ijtimoiy masalalar, terrorizm, ekstremizm va separatizm, uyushgan jinoyatchilik, tashqi kuchlarning geosiyosiy raqobati kabi dolzarb muammolar bir-biri bilan bog'lanib ketgan.

## ASOSIY QISM

Maqolani yozish jarayonida bevosita Yaqin Sharqning xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rnini, mintaqadagi geosiyosiy jarayonlar, mintaqa yetakchi davlatlar tashqi siyosati, xususan, Qatarning Yaqin Sharqdagi siyosati tashqi kuchlarning siyosatlari A.R.Bilgin, C.M. Blanchard, M.Bröning, G.Cause, B.Dennis, F.Elhusseini, D.Roberts singari tadqiqotchilar ishlarida o'rganilgan. Mavzuni yoritibberish uchun qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda umumilmiy va maxsus uslublarlarga tayangan holda, qiyosiy, tizimli, tahliliy (event tahlil, content tahlil), sintez uslublaridan keng foydalanildi.

Yaqin Sharq Janubiy-g'arbiy Osiyo va Shimoliy-sharqiy Afrikagacha yo-yilgan hudud bo'lib, aniq chegarasi o'rnatilmagan. Shuning uchun bu mintaqa chegarasi turli davrda, turli davlatlar tomonidan turlicha ta'lqin qilinadi. Ba'zan u "Near East" ga sinonim tarzda ishlatiladi. Yaqin Sharq ingliz tilida "Middle East" atamasi 1900-yillar Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan qirolikda mashhur bo'lgan. Slavyan tillarida, xususan, rus tilida Blijniy Vostok, bolgar tilida Blizkaya Iztok, polyak tilida Blizki Wscod, nemis tilida Naher Osten, ammo Fransuz tilida "O'rta Sharq" ma'nosini beruvchi Moyen Orient, ispan tilida Medio Oriente, italian tilidan Medio

Oriente sifatida qoʻllaniladi.

Shu bilan birga “Middle East” atamasi birinchi bor AQSh hukumati tomonidan rasmiy ravishda Suvaysh kanali inqirozi bilan bogʻliq 1957-yilgi Eyzexauer doktrinasi ishlatilgan boshlandi. Oʻsha vaqtdagi Davlat kotibi Jon Foster Dullas Yaqin Sharqqa quydagicha taʼrif beradi : “bu xudud gʻarbda Liviya va sharqda Pokiston, shimolda Suriya va Iroq, janubda Arab yarim orolini, plyus Sudan va Efiopiya ham oʻz ichiga oladi”. 1958-yil AQSh Davlat departamenti “Near East” va “Middle East”ni bir birini toʻldiradigan, oʻrniga ishlatsa boʻladigan mintaqasi sifatida eʼtirof etib, u hududga quydagi davlatlarni kiritgan: Misr, Suriya, Isroil, Livan, Iordaniya, Iroq, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Baxrayn va Qatar.

Rossiya Harbiy fanlar akademiyasi professori N.P.Romashkinaning taʼkidlashicha, Yaqin Sharqning bugun xalqaro siyosatidagi rolining ortib borishiga va jahon hamjamiyatining diqqat markaziga tushushiga sabab boʻlayotgan bir necha omillar mavjud:

Eng avvalo, jahon iqtisodiyotini ulkan energiya bilan taʼminlash uchun mintaqaning geostrategik ahamiyati. Zamonaviy davrda Yaqin Sharqda jahon neft zaxirasining 61,7%i va tabiiy gaz zaxirasining 40,6%i jamlangan.

Energetika Departamenti tahliliga koʻra, jahonda energetika maxsulotiga boʻlgan talab 1993- va 2015-yil oraligʻida 50% ga ortadi. Bu esa mintaqaning qudratli davlatlar manfaatlarini toʻqnashuv zonasi sifatida rolini yanada oshiradi ;

- mintaqasi davlatlarining kapital joylashtirish, maxsulot import qilish, harbiy va texnikaviy, shuningdek, rivojlangan davlatlarning texnologiyalari uchun bozor sifatidagi roliga egaligi;
- mintaqadagi davlatlar guruhining AQSh va Gʻarbiy Yevropaning moliyaviy donori sifatida ahamiyatining kattaligi (Gʻarb banklarida bugungi kunda faqatgina Saudiya Arabistonining taxminan 500 mlrd.dolarga yaqin mablagʻlari saqlanmoqda);
- Zamonaviy jamiyatda dunyoning turli mintaqalarida siyosatlashib borayotgan, jumladan, Rossiyada ham islom dinining roli va oʻrnining oʻsib borishi. Maʼlumot oʻrnida taʼkidlash joizki, Yaqin Sharq dunyo axolisining deyarli yarmi istiqomat qiladigan uch eng yirik jahon dinlari: Islom, Yaxudiy va Xristian dinlarining kelib chiqish markazi hisoblanadi.
- Zamonaviy globallashtirish taʼhidi sharoitida muxim ahamiyatga ega boʻlgan Yaqin va Oʻrta Sharq davlatlarining milliy davlat xavfsizligini taʼminlash boʻyicha konseptual yondashuvlari va uning oqibatlari;
- Ikkinchi jahon urushidan soʻng mintaqaviy keskin va davomli nizolarning biri boʻlgan Arab Isroil muammosining hal qilinmasligi muammosi va Yaqin Sharqda soʻnggi-yillar ichida jahon aholining 6%, nizolarining 35%iga toʻgʻri kelishi;
- Fuqarolik urushiga yaqin boʻlgan Iroqdagi vaziyat va u yerda joylashgan kaolision

qo‘shinlarning roli va bugungi kundagi faoliyati;

Yaqin va O‘rta Sharqdagi ommaviy qirg‘in qurollar tahdidi va uning jahonning turli mintaqalariga yo-yilish xavfi. Masalan, Eron tevarigidagi muammolar yoki Saudiya Arabistonining bu boradagi siyosati. 2006-yil martda AQSh, Isroil va Germaniya maxsus xizmatlari ma’lumotiga ko‘ra, Pokiston ekspertlari Saudiya arabistoniga yadroviy dasturlarni rivojlantirishga yordam berish uchun tashrif buyurdi. Saudiya arabistoni ham o‘z o‘rnida Pokiston yadroviy dasturini mablag‘ bilan ta’minlagan;

- Mintaqa davlatlari hududida yirik xalqaro terroristik bazalarning joylashganligi muammosi;
- Geostrategik jihatdan qulay joyda joylashganligi. Yaqin Sharq uch kontinent: Osiyo, Afrika va Yevropaning kesishgan mintaqasida joylashgan. Bundan tashqari Yaqin Sharq mintaqasi jahonning muxim transport koridori hisoblanadi. Aynan shu yerda Atlantika va Hind okeanini bir biriga bog‘laydigan muxim geostrategik ahamiyatga ega bo‘lgan Suvaysh kanali joylashgan hamda shumintaqa davlatlari qulay dengiz yo‘llariga chiqish imkoniyatiga ega, bu xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi rolini oshirish va ishtirokini kengaytirishda zaruriyomillardan biridir.

Xalqaro munosabatlarning bosh aktorlari sifatida bugungi kunda hamdavlatlar asosiy rol o‘ynaydi. Ma’lumki, zamonaviy xalqaro munosabatlarning xususiyatlaridan biri xom ashyolar energetika resurslarining davlatlar o‘rtasidagi qarama qarshilik manbaiga aylanishi bilan baholash mumkin. Ana shunday energetika zahiralari eng boy hudud bugungi kunda Yaqin Sharq mintaqasidan olinadi, ushbu mintaqada jahon neft zahirasining 61,7 foiziga va tabiiy gaz zahirasining 40,6 foiziga egalik qiladi. Bundan tashqari dunyo aholisining 6 foizi mintaqada yashashi, jahondagi nizolarning 35 foizi ham aynan shu mintaqaga xissasiga to‘g‘ri kelishi mintaqaning ahamiyatini bildiradi.

Rassiyalik olim prof. N.P.Romashkinaga ko‘ra, Yaqin Sharqning bugungi xalqaro siyosatdagi rolining ortib borishiga va jahon hamjamiyatining diqqat markaziga tushushiga sabab bo‘layotgan bir necha omillar mavjud bo‘lib ular quyidagilardir;

Birinchi omil sifatida, jahon iqtisodiyotini ulkan energiya bilan ta’minlash uchun mintaqaning geostrategik ahamiyati, tahlillarga ko‘ra, jahonda energetika mahsulotiga bo‘lgan talab 1993-yil va 2015-yil oralig‘ida 50 foizga ortishi ko‘rsatgichi esa Yaqin Sharqning qudratli davlatlar manfaatlari yanada to‘qnashuv zonasiga aylanadi;

Ikkinchi omil sifatida, Zamonaviy jamiyatda dunyoning turli mintaqalarida siyosiy lashib borayotgan jumladan, Yaqin Sharq dunyo aholisining deyarli yarmi istiqomat qiladigan uch eng yirik jahon dinlari: Yahudiylik, Xristianlik va Islom dinlarining kelib chiqish markazi hisoblanishi.

Uchinchi omil sifatida, Mintaqaning geostrategik jihatdan qulay joyda, uch kontinent: Osiyo, Afrika va Yevropaning kesishgan mintaqasida joylashgani uning ahamiyatini oshiradi. Bundan

tashqari Yaqin Sharq mintaqasi jahonning muhim transport koridori ham hisoblanadi. Aynan shu yerda Atlantika va Hind okeanini bir-biriga bog'laydigan muhim geostrategik ahamiyatga ega bo'lgan Suvaysh kanali joylashgani, bu esa mintaqa davlatlari uchun qulay dengiz yo'llariga chiqish imkoniyatini ochib beradi, bu esa o'z-o'zidan mintaqani xalqaro munosabatlardagi rolini oshiradi va ishtirokini kengaytirishda zaruriy omillardan hisoblanadi.

Xususan, bugungi dunyoda katta kuchga ega bo'lgan davlatlarning mintaqadagi siyosatiga to'xtalib o'tamiz. Bu davlatlarga shubhasiz Rossiya va AQSh hamda boshqa Yevropa va ASEAN davlatlarini ham kiritish mumkin. 2006-yil iyun oyida Tel-Aviv shahrida AQSh davlat kotibi Kondaliza Rays tomonidan "Katta Yaqin Sharq" o'rniga "Yangi Yaqin Sharq" atamasi kiritilgani undan ko'zlangan maqsad esa yagona, har qanday sharoitda ham mintaqada o'z ta'sirini yo'qolishiga yo'l qo'ymaslikdir.

2007-yil fevralida Rossiya Federasiyasi Prezidenti Vladimir Putin Germaniyaning Myunxen shahrida bo'lib o'tgan "Xavfsizlik xalqaro konferensiyasi"da AQShning jahon siyosiy maydonidagi bugungi faoliyati (siyosati)ni keskin tanqid qildi. Bundan tashqari AQShning Yaqin Sharqdagi demokratiyani qo'llab-quvvatlash sifatida yuritayotgan siyosatini ham qoraladi. Chunki AQSh jahonhamjamiyati roziligisiz Iroqqa bostirib kirganini e'tirof etib o'tdi o'z chiqishida. Shuningdek, Rossiya ham mintaqa mamlakatlari Eron va Suriyaga Tor-M1 turkimidagi havo mudofaa tizimini sotish orqali AQShning mintaqadagi ta'sirini kamaytirishga intilmoqda. Chunki Yaqin Sharq Rossiyamanfaatlari doirasidagi xudud hisoblanadi. Yaqin Sharq mintaqasi jahonning qurolli nizolarga boy hududlaridan hisoblanadi.

Isroilning norasmiy yadroviy davlat ekanligi va "Ierixon" turkimidagi uzoq masofaga uchuvchi raketalari, Misrning "Al-Zafar" (375km), "Al-Qohira" (600km) va "Al-Riod" (1000km) masofaga uchuvchi raketalar sistemasiga egaligi ham mintaqada kuchli qurollanishni tezlashtirmoqda. AQSh lik taniqli eksperti A.Koen fikriga ko'ra, Rossiya OPEK dan tashqari eng yirik gaz va neft ishlab chiqaruvchi va eksport qiluvchi davlat hisoblanishi ham mintaqada uning ta'sirini oshiradi.

Yaqin Sharq siyosatining yangi davri boshlanishini aniqlab bergan omillardanbiri sifatida AQShning 1900-2000-yillarda xalqaro munosabatlardagi rolining o'zgarganligi va yagona yetakchi pozitsiyasini egallashga urinishi bilan xarakterlanadi. Bu borada Rossiyaning o'z muammolari doirasida qolganligi, Xitoyning yetarlicha raqobatbardosh emasligi, Yevropa Ittifoqi va Yaponiyaning AQSh bilan hamkorligi AQShning dunyoda gegemonlikka intilishiga zamin yaratdi. Shu davrdan boshlab, AQSh "o'z yo'lidan yurish"ni sinab ko'rmoqda, qolgan davlatlar u bilan hisoblashishi zarur, degan fikrni bildirgan olim G.A.Drobot.

Rossiya tashqi siyosatining ikkinchi davri boshlanishi amaliyoti Prezidentsifatida 2000-yilda saylangan Viladimir Putin bilan bog'liq bo'lib, uning tashqi siyosatini ikki muhim qismini

ko'rsatish mumkin:

Birinchi muhim qismi, Rossiyaning mintaqada tashqi siyosiy yo'nalishini qayta tashkil etish, shuningdek, zamonaviy dunyoda yetakchi kuch markazlarining katta qismi bilan, shu jumladan AQSh, YI, Xitoy, Hindiston, Lotin Amerikasi davlatlari va Yaqin Sharq mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va boshqa sohalarda keng aloqalarni qo'llab-quvvatlash;

Ikkinchi muhim qismi, jahonda AQSh hegemonligiga yo'l qo'yimaslik, bu xarakat 1990-yil oxirida, tashqi ishlar vaziri Ye.Primakov davridan boshlangan bo'lib, Rossiya Falastindagi G'arb tomonidan terrorchi tashkilot sifatida nomlangan, e'lon qilingan Xamas tashkiloti bilan rasmiy munosabatlar o'rnatishi ham uning pozitsiyasini belgilaydi.

Zamonaviy davrda Rossiyaning Yaqin Sharqdagi eng murakkab aloqalaridan biri aynan Isroil davlati bilan bog'liq. Rossiya bu borada sobiq Ittifoq modelidan ya'ni Isroilni mintaqadagi asosiy AQSh tarafdori sifatida e'tirof etadi. Rossiya va Isroil o'rtasida diplomatik aloqalar 1948-yilda o'rnatilgan bo'lsada ammo, 1991-yil dekabrda Moskvada va Tel-Avivda ikki davlat elchixonalari ochildi. 1991-yil ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 12 mln AQSh dollaridan – 2007-yilda 2,53 AQSh dollarini tashkil etadi. 2007-yil Rossiyadan eksport 2,03 AQSh dollarini, Isroildan import esa 530 AQSh dollarini tashkil etgan. Rossiyaning Yaqin Sharqda AQShning eng katta ittifoqchisi Isroil bilan aloqalari avvalo iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi. Shu jumladan, Prezident V.Putin 2005-yilning may oyida Isroilga tashrifi chog'ida 2006-yanvarda Yaqin Sharqda tinchlik konferensiyasini o'tkazish taklifi Falastinliklar tomonidan qabul qilingan bo'lsada, Isroil tomonidan rad etilishi o'zaro siyosatga albatta ta'sirini ko'rsatganligini e'tirof etish mumkin. Bu esa Rossiya siyosatini AQSh va Buyuk Britaniya siyosatidan ajralganidan darak beradi.

Rossiyaning Yaqin Sharqdagi muammolarga nisbatan munosabatini ikki standartli deyish mumkin. Rossiya mudofaa vaziri quyidagi fikrni bildiradi: "Rossiyaning siyosati Arab tomonida ham, Isroil tomonida ham emas. U Rossiyaning milliy manfaatlari xavfsizligini ta'minlashni ko'zlaydi. Ular orasida Arab davlatlari va Isroil bilan yaqin va do'stona aloqalarni qo'llab quvvatlaydi. Rossiya mudofaa vaziri S.Ivanov 2006-yilda "Biz janubiy chegaralarimizda boshqa yadroviy davlatning vujudga kelishini xohlamaymiz, bu aniqdir." deb bayonot bergan bo'lsa, Erondan tashqari 2007-yil 11-fevralda Rossiya Prezidenti V.Putin Saudiya Arabistoni podshohligiga tashrifi chog'ida ham Saudiya Arabistoniga "Tinchlik" maqsadida atom reaktorlarini sotib olishni taklif qildi. Mazkur misollar Rossiyaning Yaqin Sharqda tinchlik o'rnatish borasidagi siyosatidagi ikki standartlik tamo-yiliga amal qilinayotganini ko'rsatib beradi.

*Yaqin nizolari va ularning tarixiy xususiyatlari.* Hozirda Yaqin Sharqda kechayotgan vaziyatlar mintaqa mamlakatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapdi. Xususan Falastin-Isroil mojarosi mintaqaning boshqa qo'shni davlatlari bilan ham bir qator masalalar yuzasidan



tinchlik diplomatiyasi vositasida ko'rib chiqilmoqda. Falastin davlat rahbari Mahmud Abbas Turkiya xukumati vositachiligida Suriya-Isroil o'rtasida muzokaraning ijobiy bo'lishini har tomonlama foydali bo'lishligini bildirib,di. Falastinning Fath xarakati rahbari Mahmud Abbas Turkiya tashqi ishlari vazirligi delegasiyasi rahbari Feridun Siniro'g'luni qabul qildi. Turkiyaning BMTning nodoiimiy a'zolari safidan o'rin olgani, mintaqada rasmiy Anqaraning mavqeyi tobora ortib borayotganini e'tirof etdi. Shu o'rinda, Isroilda yangi xukumat tuzishga intilayotgan Isroil tashqi ishlar vaziri Sipi Livni faoliyatini maqulladi. Isroil siyosatidagi turli o'zgarishlar tufayli 2008-yilda o'zaro bir kelishuvga ya'ni tinchlik shartnomasiga erishishda «ijobiy fikr yuritishga harakat qilamiz» deya ta'kidlagan.

Yaqin Sharqdagi nizolarga munosabat bildirganda, shuni ta'kidlash joizki, Yaqin Sharq haqiqatdan, bugungi biz yashab turgan sayyoramizning eng nizolarga boy hududlaridan hisoblanadi. Bu mintaqadagi asosiy nizo va muammolar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Ikkinchi jahon urushidan to bugungi kunga qadar o'z yechiminitopolmayotgan Arab-Isroil (va Falastin, Eron, Suriya, Livan) mojarosi;
- Eron davlatining yadroviy qurolga egalikka intilishi;
- Iroqda vujudga kelgan bugungi vaziyat;
- Turli siyosiylashgan guruhlarining Yaqin Sharqlagi faoliyati bilan bog'liqmuammolar.

Mazkur muammolarning aksariyati mintaqada yirik davlatlar ta'siri ostida yuzaga kelmoqda. Masalan, Isroil va Falastin mojarosi, shuningdek, Arab davlatlari orasidagi hududiy muammolarda Buyuk Britaniyaning roli, Iroqmuammosida AQShning roli hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan bo'lsa, Falastin xukumatiga Xamas guruhining kelishida va mintaqadagi faoliyatida Eron va Suriya katta rol o'ynamoqda deyish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ikki qudratli davlat AQSh va Rossiyaning mintaqada olib borayotgan siyosati, u yerdagi nizolarga nisbatan yondashuvi eng avvalo, davlatlarning milliy manfaatlarining ta'minlanishiga asoslangani muammolarni bartaraf etishdan ularga hech naf yo'qligidan dalolat beradi. Bu borada mintaqaning katta harbiy bozor, jahon davlatlariga ta'sir o'tkazish uchun qulay geostrategik joylashuvi, yirik energetika resurslariga egaligi hisobga olinmoqda. Yaqin Sharqda va o'zining chegara oldi mintaqalari AQSh va o'zga yetakchi davlatlar YI davlatlari ta'sirini kamaytirish hamda tashqi tahdidlarning oldini olishga qaratilgan. Bu kabi omillar esa o'z-o'zidan kelgusida Rossiyaning Yaqin Sharqdagi siyosati yanada faollashishiga olib keladi deyish mumkin.

## XULOSA

Yaqin Sharq mintaqasi jahon hamjamiyatida o'zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, qulay geoiqtisodiy sharoitlarga egaligi va uch yirik dinning kelib chiqish markazi ekanligi bilan muhim o'rin egallab kelmoqda. Mazkur omillar bir tomondan mintaq

davlatlarining xalqaro maydonda iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan rolining oshishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan mintaqaning dunyoda yirik davlatlar manfaatlarini to'qnashuv markaziga aylanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazemroaya M.D. Plans for Redrawing the Middle East: The Project for a "New Middle East" // <http://www.globalresearch.ca/index.php?context=viewArticle&code=NAZ20061116&articleId=3882> -Global Research, November 18, 2006
2. Wendy McElroy. Background of the Middle East Conflict, Part 1 // <http://www.fff.org/freedom/fd0310e.asp> - October 2003.
3. Шербини Н. Спасут ли Россия и Германия Ближний Восток? // Россия в глобальной политике. № 1, Январь - Февраль 2005 // <http://www.globalaffairs.ru/number-s/12/3641.html> - 16-02-2005
4. Институт религии и политики, 29.03.2006 // <http://www.i-r-p.ru/page/stream-event/index-4479.html>
5. Мирский Г. Большой Ближний Восток — самый конфликтный регион мира.// <http://www.wpec.ru/text/200704171449.htm> – Клуб мировой политической экономики
6. Nazemroaya M.D. Plans for Redrawing the Middle East: The Project for a "New Middle East" // <http://www.globalresearch.ca/index.php?context=viewArticle&code=NAZ20061116&articleId=3882> -Global Research, November 18, 2006
7. Wendy McElroy. Background of the Middle East Conflict, Part 1 // <http://www.fff.org/freedom/fd0310e.asp> - October 2003.
8. Mahdi Darius Nazemroaya Plans for Redrawing the Middle East: The Project for a "New Middle East". <http://www.globalresearch.ca/index.php?context=viewArticle&code=NAZ20061116&articleId=3882> Global Research, November 18, 2006
9. Krupnov Y. The New Middle East: A Mega-Objective For Russia // Analytical online journal – RP Monitor // <http://www.rpmonitor.ru/en/en/detail.php?ID=12045> - November 30, 2008
10. Дробот Г.А. Великие державы в мировой политике: Россия // <http://www.worldspol.msu.ru>
11. Бжезинский З. Великая шахматная. –М.: Междунар. отношения, 1998. –С.66.
12. Георгий Мирский, Большой Ближний Восток — самый конфликтный регион мира.// Клуб мировой политической экономики - <http://www.wpec.ru/text/200704171449.htm> – 17.04.2007
13. Afrasiabi L. Russia plays a double game over Iran // Asia Times
14. Cohen L. Achmat weighs in on Israeli 'war architect' // Sunday Times. July 26, 2009.